

JINOYAT VA JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7581224>



ELSEVIER



Axunov Muqimjon Muxammadjonovich
ingliz tili va adabiyoti fakulteti va adabiyoti fakulteti dekani



Received: 22-01-2023

Accepted: 22-01-2023

Published: 22-01-2023

Abstract: Ushbu maqolada jinoyat huquqiy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi ma'lum bir belgilarga ega ekanligi, har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmasligi, Aybning shakliga ko'ra esa qasddan sodir etilgan jinoyat va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatga bo'linishi haqida so'z boradi.

Keywords: jinoyat, huquq, fan, qonun, tarmoq, tushuncha, , kriminalistika, kriminologiya, sud.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Bunga ko'ra:

- jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish;
- jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish.

Jinoyat huquqining asosiy vazifasi shaxs va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy xavfli ekanligi va ularning jinoyat huquqiy tartibga solinishi kerakligini belgilashdan iboratdir.

"Jinoyat" tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta'rif birinchi bor 1791-yilda qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo'lib, ushbu ta'rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: "Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir", -deya ta'rif berilgan edi.

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2-moddasida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoyat tushunchasi belgilab qo'ygan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash

tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Jinoyat – shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma’lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi.

Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan bir-ga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o’ylar, fikriy xulosalar qancha-lik zarar keltiruvchi bo’lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo’yilgan.

Jinoyatga moddiy tushuncha berish g’oyat muhim bo’lib, bu nafaqat jinoyat huquqining o’ziga, balki jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, kriminologiya va boshqa huquqiy fanlar uchun ham zarurdir.

Jinoyat – jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o’zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an’analariga muvofiq xalqaro huquq me’yorlari e’tiborga olingan holda hal etiladi.

Qilmish jinoyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi:

1. qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
2. aybning mavjudligi;
3. jazoga sazovorligi.

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo’lishi shart, ulardan biri mavjud bo’lmasa, qilmishni jinoyat emas, deb hisoblashga asos topiladi.

Jinoyatlar o’z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko’ra:

- ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan;
- uncha og’ir bo’lmagan;
- og’ir;
- o’ta og’ir jinoyatlarga bo’linadi.

Jinoyatlar tajovuz ob’yektiga ko’ra, shaxsga qarshi jinoyat, iqtisodiyot sohasidagi jinoyat, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyat, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyat, ekologiya sohasidagi jinoyat, harbiy xizmatni o’tash tartibiga qarshi jinoyat, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatga bo’linadi.

Aybning shakliga ko’ra esa qasddan sodir etilgan jinoyat va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatga bo’linadi.

Jinoyat – huquqiy hodisa sifatida o’ziga xos jihatlarni ifodalov-chi ma’lum bir belgilarga egadir. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o’rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo’lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarini mustahkamlovchi maxsus modda mavjud emas. Shu sababdan jinoyat belgilari jinoyat qonunida jinoyatga berilgan ta'rif asosida aniqlanadi.

Jinoyat qonunida berilgan jinoyat tushunchasi uchta jinoyat-huquqiy institutdan iborat:

- jinoyat qonuni;
- jinoyat;
- jazo institutlari.

Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, faqat ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qilmishlargina jinoyat hisoblanmay, balki qonun bilan qo'riqlanadigan obyektga real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ham jinoyat hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi 14-moddasi 2-qismida: "Ushbu kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi", -deyilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo'lsagina u jinoyat deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo'lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqida bunday harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb aytiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2005 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, T., «Adolat», 2005 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. T., «Adolat», 1997 y.
- 4.I. Zokirov. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. Toshkent, «Adolat», 2006 y.
5. I. Zokirov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. Toshkent, «Adolat», 1999